

FAYNBERG SHE'RLARIDA TABIAT IFODASI

Madaminova Mohinabonu

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

3-ingliz tili fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada buyuk rus va o'zbek shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg she'rlarida ifoda etilgan mavzular ko'rib chiqilgan hamda ularning qay darajada o'z she'rlarida mazmun ifodalaganligini o'rganishingiz mumkin. uning bizga qoldirgan merosini asrash yuzasidan o'tkazilayotgan chora tadbirlar to'g'risida ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *stipendiya, tabiat, qadriyat, so'z, tarjimon, yoshlar*

Annotation: *in this article, the themes expressed in the poems of the great Russian and Uzbek poet Alexander Arkadevich Feinberg are considered, and you can learn to what extent they expressed content in their poems. The measures taken to preserve the heritage he left to us were also mentioned.*

Key words: *scholarship, nature, value, word, translator, youth*

Аннотация: *в данной статье рассматриваются темы, выраженные в стихах великого русского и узбекского поэта Александра Аркадьевича Фейнберга, и можно узнать, в какой степени они выразили содержание в своих стихотворениях. Были также упомянуты меры, принятые для сохранения наследия, которое он нам оставил.*

Ключевые слова: *стипендия, природа, ценность, слово, переводчик, молодежь.*

KIRISH

“Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l toppish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlashtirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz.” (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

O’zbek qalbli buyuk rus va o’zbek shoiri, Pushkin medali sohibi Aleksandr Arkadevich Faynberg. O’zbek adabiyoti osmonida yorqin porlagan yulduz. Bilamizki, uning ijodiga so’nggi yillarda katta e’tibor qaratilmoqda. Uning biz uchun qoldirgan har bir asari, ulkan merosini asrash borasida ko’rilayotgan chora tadbirlar tahsinga sazovor. Ayniqsa, Aleksandr Faynberg nomidagi nomdor stipendiya ta’sis etilganini alohida e’tiborga olish lozim. Talabalar, yoshlar o’rtasida uning she’rlarini yanada targ’ib qilish maqsadida ko’plab



targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Taniqli o'zbek shoiri Abdulla Oripov “Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, ... rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizga samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas.” - deb ta'riflagan edi.

Nima sababdan bu shoirga biz bunchalik e'tibor qaratyapmiz? Chunki u o'z diyoriga o'z muhabbatini yorqin ifoda etib bera olgan. Vatanga muhabbat tuyg'ularini o'z she'rlariga jo qila olgan, o'zbek diyorida porlagan yorqin yulduz. Uning porloq o'ziga xos poetik iste'dodga, adabiy asarlarda yuqori estetik darajaga ega bo'lgan shoir. U nafaqat shoirlik bilan, balki tarjimonlik, ssenariy mualliflik bilan ham adabiyot sarhadini kengaytira olgan. O'zbek urf-odatlarini ham noziklik bilan kuylay olgan. Shu sababdan ham Aleksandr Arkadevich Faynberg biz uchun, o'zbekistonliklar uchun uning o'z vatanining haqiqiy vatanparligi uchun juda qadrlidir.

TAHLIL VA METODLAR

Toshkent topografiya kollejiga o'qishga kirganidan so'ng, Faynberg geolog sifatida butun mamlakat bo'ylab sayr qilib yurdi va uning go'zal tabiatiga bo'lgan muhabbatga to'ldi. Aynan shu davrda uning "Velosiped yo'lakchasi" birinchi kitobi nashr etildi, u orqali Aleksandr Faynberg O'zbekistondagi adabiyotning ilg'or pog'onalariga ko'tarildi. Shundan so'ng uning she'riy to'plamlari qator nashr chiqa boshladi. Bundan tashqari tarjimonlik sohasida ham o'zining qobiliyatli ekanini ko'rsata oldi. U Alisher Navoiy asarlarini rus tilida 10 jildda nashr etishga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, u zamonaviy o'zbek she'riyatining eng yaxshi namunalarini rus tiliga tarjima qildi. Shu bilan birga shoir asarlari muntazam ravishda o'zbek tiliga tarjima qilinib, u o'zbek kitobxonlarining sevimli shoiriga aylandi.

Faynbergning she'rlari turli yo'nalishlarda yozilgan, tabiat, inson, sh'er, milliy urf-odatlar kabi. Ua yana bir she'rida oddiygina bir so'zning qanchalik muhimligini tasvirlab bergan:

Kechikadi poyezdlar ba'zan,
Uchoqlar ham kechikar, ammo
Chin kulfatdir mabodo inson
Aytar so'zi kechiksa, illo.

Bu orqali o'z fikringizni bildirishda aslo kechikmang degan ma'noni tushunsak ham bo'ladi. Tasavvur qilsak, agar biz o'z aytar so'zimizni o'zga bir insonga yetarlicha aytib yetkazolmasak yokida umuman aytmasak nima bo'lishi mumkin? oddiygina savdo-sotiq masalasi bo'yicha misol keltirsak ham Grand Kardonning mahshur gapi bor: “ sotuvni aytilgan emas aytilmagan



gaplar to'xtatadi". ushbu she'ni boshqacha talqin qilsak ham bo'ladi. so'z deya bizning o'z qadriyatlarimizni tushunsak ham bo'ladi. Agarda insonlar tobora o'z urf-odatlarini unutayozsa, kunlar kelib unga tarixiy ya'ni yo'qolib ketgan an'ana sifatida qarashadi. Har bir qadriyat, urf-odatlar o'z o'rnida va o'z vaqtida o'z ifodasini topsa "chin kulfat"ga aylanmaydi

She'ning keying satrlariga e'tibor qaratsak:

O'chib qolgan gulxanday g'amlar,

Tambalangan oynaday bu kez

Uni kecha kutgan odamlar

Kabi so'z ham bo'zlaydi yolg'iz.

Yuqorida bergan ta'rifimizning yaqqol davomi desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir milliy boylik biz uchun qadrlidir. She'ning so'nggi satrlarida shoir yana tabiatga murojat qilgan:

Olis boqqan o'rmonlar ichra

Ma'yus tortar olis yo'l pinhon.

Saf-saf tortgan qabrlar uzra

Manzili yo'q, cheksizdir osmon.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizday shoir o'z she'rlarida tabiat bilan hamohanglikni aslo unutmagan. Bir qancha she'rlarida ko'rishimiz mumkin u tabiat bilan yondoshlikni saqlaydi. Misol uchun yana bir "varaqq" nomli she'rida ham tabiat bilan bog'liqlikni amalga oshirgan:

Avlodlarga kelmasin malol

She'rlarim g'am chekmasin nochor

Shamol, dengiz va yaproq misol

Nafas olsin, kulsin beg'ubor.

Faynberg tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlayotganda tabiiylikni saqlab qoladi. Shu sababdan ham uning she'rlariga bo'lgan hurmat kundan kunga ko'tarilib bormoqda. Yurtimizda ham Faynbergning yorqin xotirasini saqlash uning ijodiy merosini asrash bo'yicha ham qator targ'ibot, tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Uning ijodini yanada yoshlar o'rtasida yoyish aqsadida uning she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha tanlovlar tashkil qilinganda yanada yaxshi bo'lar edi. Ushu tanlov o'tkazilsa birinchidan yoshlar o'etasida Faynberg ijodiga bo'lgan qiziqish yanada oshadi. Ikkinchidan ularni ijod sohasidagi tarjimonlik qobiliyatlarini ham yanada ochib, ko'rsatishga bu juda zo'r imkoniyat bo'ladi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Faynberg ijodi nafaqat bugungi kun yoshlari uchun, balki kelajak-avlod uchun ham ijodga boy manbaa bòladi. Yosh ijodkorlar uning ijodiy ishlariga hali kòp murojaat qiladi deb hisoblayman. Shoirning ijodi keng ko'lamli va sermahsul. Uning she'rlarida rang baranglik, falsafiy teranlik tuyg'ulari yorqin aks etib turadi. Shoir so'zni chuqur his etadi, bu hisga o'quvchini ham hamroh qiladi. U O'zbekistonda yashadi, ijod qildi, bu yurtning havosi, osmoni, tuprog'i, eli bir so'z bilan aytganda, butun borlig'i shoirga she'r qadar, qalb qadar aziz bo'lib ulgurgan edi. Shoir o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, o'zining betakror asarlarida el-u yurtimzni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste'dod egalaridan biri edi. Shoir o'zidan o'chmas va tunganmas asarlarini meros qilib qoldirdi. Uning ushbu merosini asrash avaylash biz yoshlarning qo'lida!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma—Sh.Sirojiddinov, G.Jo'rayeva, U.Hamdam, M.Abdullayev – Toshkent-2020
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. <https://arboblar.uz/ru/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
4. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/download/4802/9252/4719>
5. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/4678>
6. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/43313/43660/50456>

